

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

**«Engil sanoat texnologiyasi»
fakulteti**

**«Engil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi»
kafedrası**

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani
_____ U. Meliboev
«__» _____ 2016 yil

5320900-«Engil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi» yo'nalishi
bo'yicha bitiruvchi

Ahmadjonova Ziyodaning

**"Ayollar beli kesimli ko'ylagini konstruksiyasini qurish,
modellashtirish va texnologik jarayonlarini tadqiqi" mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: Z.Ahmadjonova

Ilmiy rahbar: J. Qayumov

Kafedra mudiri: Ergashev J

Namangan - 2016 y

1. KIRISH

Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov har yili oʻtgan yil yakunlari va joriy yil rejalariga bagʻishlab oʻtkaziladigan Vazirlar Mahkamasining majlisida mamlakatimiz taraqqiyotida erishilgan natijalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalarida qoʻlga kiritilgan yutuqlar, shuningdek kelgusida alohida eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalar boʻyicha keng qamrovli dasturiy maʼruza qiladi. Ushbu anʼanaga muvofiq holda 2016-yil 16-yanvar kuni asosiy maqsadi Oʻzbekistonning 2015-yildagi iqtisodiy- ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va 2016-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yoʻnalishlarini tasdiqlab olishdan iborat boʻlgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisi boʻlib oʻtdi. Davlatimiz rahbari ushbu majlisda soʻzlagan maʼruzasida oʻtgan yilda erishilgan yutuq va natijalar toʻgʻrisida toʻxtalar ekan “avvalambor shuni taʼkidlashimiz kerakki global jahon iqtisodiyotida hali beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan 2015-yilda Oʻzbekiston oʻz iqtisodiyotida barqaror suʼratlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni taʼminladi, dunyo bozoridagi oʻz pozitsiyasini mustahkamladi” deb eʼtirof etdi. Haqiqatdan ham keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan va bugungi kunda saqlanib qolayotgan jiddiy muammolar Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun yana bir sinovga aylandi. Bu haqda fikr yuritilganda eng avvalo oʻzining salbiy oqibatlar bilan dunyodagi barcha mamlaktlar iqtisodiyotiga jiddiy taxdid solib kelayotgan global moliyaviy – iqtisodiy inqirozni tilga olish oʻrinlidir.

					Ayollar beli kesimli ko'ylagini konstruksiyasini qurish, modellashtirish va texnologik jarayonlarini tadqiqi					
					Bitiruv malaka ishi	adabiyot			massa	massht
O`z	Varoq	Hujjat №	Imzo	Sana						
Bajardi		Z.Ahmadjonova								
Rahbar		J.Qayumov								
Maslahatchi		B.Dedajanov				varoq		varoqlar		
Maslahatchi		V.Bahriddinov				YeSMKT kafedras	NamMTI 15au-12 gr			
Kaf. mudiri		J.Ergashev								

Ta'kidlash lozimki, ko'pchilik davlatlar uchun katta tashvish va muammolar tug'dirayotgan, jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishga to'siq bo'layotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning belgi alomatlari o'tgan asrning so'nggi choragidan e'tiboran rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida paydo bo'lgan turli nomutanosibliklar xususan real va moliyaviy sector o'rtasidagi nisbatning keskin buzilishi oqibatida vujudga kela boshlagan edi. Ana shu mamlakatlardagi yirik muassasalar tomonidan o'zining xususiy korporativ manfaatlarini amalgam oshirish maqsadida bank-moliya sohasidagi me'yor va tartiblarni qo'pol tarzda buzilishi jahondagi ko'plab davlatlarning real aktivlaridan spekulyativ tarzda foydalanish orqali katta daromad olishga intilish va shu tariqa global moliyaviy munosabatlar tizimida jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yish milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni qo'llab quvvatlash tobora o'sib borayotgan tashqi qarzlarni cheklash uchun, arzon pullar siyosatining qo'llanishi, kabi xatti-harakatlar yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarning yanada kuchayib muqarrar ravishda inqiroz xolatini keltirib chiqaradigan darajada tobora keskin tus olishga saba bo'ladi. Ayniqsa moliyaviy mablag'lardan spekulyativ maqsadlarda foydalanishda jahonning ko'plab mamlakatlardagi moliyaviy muassasalar bilan bir qatorda aholining kam ipotekali kreditlash tizimini orqali keng jalb qilinishini, mazkur jarayonlarning jadallashuviga va oxir oqibatda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishiga sabab bo'ldi.

Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiy tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan axolining 75 foizini kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish axolini ish bilan taminlash muammosi xalq etish va xalqimiz farovonligi yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda.

Iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o'zgarishlar mamlakatimiz eksport salohiyatini mustaxkamlashda eksport xajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o'zgarishlar erishishda eng muxim omilga aylanadi.

Ishlab chiqarishni modelnizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-komunkatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014-yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir. O'tgan yilda mamlakatimiz ta'lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan taminlandi. Shunisi quvonarliki, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o'z kelajagini kichik biznesda ko'rmoqda.[1]

Prezidentimiz jahon moliyaviy inqiroz ro'y bergan dastlabki palladayoq uning ta'sir darajasi ko'lami va keltirib chiqarish mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga haqqoniy baho berib jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlari har qaysi davlat darajasida va umuman dunyo hamjamiyati miqyosida qilinayotgan chora tadbirlarning qanchalik samaradorligiga ularni bir-biriga uyg'unligiga bog'liq deb xulosa chiqargan edi. Bunday ob'yektiv xulosalar asosida O'zbekistonda 2008-yilning o'zida inqirozga qarshi kurash chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilib unda belgilangan tadbirlarni izchil ravishda amalgam oshirishga kirishildi. Yengil sanoat sohasida tashkil etilgan qo'shma korxonalar geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda sohani rivojlantirish borasida eng katta xorij sarmoyasiga ega bo'lgan (xorijiy investitsiya mablag'larini kiritgan) davlatlardan biri Koreya Respublikasi hisoblanadi. Mazkur davlatning ulushi 38 foizni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda esa Turkiya, Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar turadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib, milliy talim tizimini ifoda etgan va o'zbek modeliga xos davlat talim standartlari ishlab chiqiladi va amaliyotga kiritildi. Shu asnoda talim tarbiya olishning xuquqiy asoslari yaratildi. 2009 – yildan boshlab 12 yillik majburiy talim joriy etildi. Bugungi

kunda talim "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan dasturga muvofiq mamlakatimizda o'rta maxsus kasb hunar talimini o'z ichiga olgan 12 yillik talim tizimiga o'tish ishlari yakunlandi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan kiyimlar sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy xorijiy davlatlarning texnologiyalari asosida jihozlash bilan amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz o'z asarlarida yengil va to'qimachilik sanoat mahsulotlariga va uni sifatli qilib chiqarishga katta ahamiyat berib kelmoqdalar.

Hurmatli prezidentimiz bejizga, "Biz qudratli to'qimachilik va yengil sanoatni tashkil etib, xom-ashyo bilan emas, barcha rivojlangan mamlakatlar kabi tayyor mahsulotlar bilan savdo qilishimiz lozim" deb aytmaganlar. Haqiqatdan agar paxta tolasidan yigirilgan ip xorijga sotilsa ikki barobar" agar ipdan tayyor kiyim-kechak qilib sotilsa, 3- 4 barobar daromad olish mumkin ekanligi ma'lum. Yengil sanoat tarmog'ini rivojlantirishning yana bir muhim omili bo'lib, ilm fan yutuqlaridan amaliyotda foydalanish, yangi texnika - texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tadbirlarni yo'lga qo'yish, yengil sanoat tarmoqlarining xududlararo taqsimlanishidagi nomutanosiblik muammolarini hal etish hisoblanadi. [2]

Namangan shahrining Do'stlik shoh ko'chasida joylashgan "Istiqlol Dizayn Markazi" masuliyati cheklangan jamiyat davr bilan hamqadam korxonalardan biridir. Mazkur yurtimizda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish xususan yosh tadbirkorlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligining samaralaridan biri sifatida "Istiqlol tekstil dizayn" ma'suliyati cheklangan jamiyati ta'sischi ligida o'z faoliyatini boshlagan.

Mustaqillikka erishilmasdan avval mamlakatimizda (u ham bolsa faqat poytaxtda) kostyum tikadigan bir- ikkitagina fabrika bo'lardi. Bu korxonalar mahsulotlari bozor talab va extiyojlari bilan hisoblashmay ishlab chiqarar, shu bois kastumlar ko'pincha ombor va peshtaxtalarda turaverib eskirib ketar, ularni tanlash imkoniyati bo'lmigani uchun ilojisizlikdan sotib olinardi. Bugungi kunda esa "Istiqlol", "Iftixor kiyim sanoat", "Zamin lyuks tekstil", "Tekstil libos",

“Lyuks plyus servis” singari o’ttizdan ziyod korxona ilg’or texnologiyalarasoida yuqori sifatli, xush bichim import o’rnini bosuvchi va sportbop kostyumlar ishlab chiqarayotgani mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning samarasidir.[3]

1.1. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati

O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish, fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish axolini turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ulkan maqsadli ishlar amalgam oshirilmoqda. Respublikamizning ravnaqi ko’p jixatdan tikuvchilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko’paytirish, katta yoshli ayollarni plankali yozgi ko’ylagini kanstruksiyasini qurish, modellashtirish va texnologik jarayonlarini loyihalashga ularni yaxshilashga bo’liqdir. Respublikamiz aholisiga manzur bo’ladign zamonaviy tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yo’qolib ketayotgan milliyliyligimizni targ’ib etish texnologik jarayomnlarini modelnizatsiya qilish soha mutaxassislarini oldiga qo’yilgan asosiy vazifalardan biridir. Korxonada ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish bo’lib unda respublikamizdagi tikuvchilik korxonalarining ildida turgan muammolar korxonalarni iqtisodiyotida tutgan o’ni ahamiyatini asoslshga qartilgan.

1.2 Bitiruv malaka ishining maqsadi va vazifalar

Bitiruv malaka ishida tanlagan mavzu, ayollar beli kesimli ko’ylagini konstruksiyasini qurish, modellashtirish va texnologik jarayonlarini tadqiqidir. Zamon talablariga javob bera oladigan tikuvchilik buyumlarini loyihalash, materiallarni sifatini tekshirish, baholash tartibini rivojlantirish, kiyimga qo’yiladigan talablarni, gazlamadan tejamli foydalanish texnologik ketma-ketligini tadqiq qilish ko’zda tutilgan.

Respublikamizda tikuv korxonalarining bozordagi mavqei, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'gan muamolarni hal etish, mahsulot raqobatdoshligini oshirish kabi ishlar ushbu ishning asosiy maqsadidir.

1.3 Tanlangan obyekt va tadqiqot usuli.

Bitiruv malakaviy ishida ayollar beli kesimli ko'ylagini konstruksiyasini qurish, modellashtirish va texnologik jarayonlari tadqiq etiladi.

Birinchi bo'lim yakuni bo'yicha hulosalar

Birinchi bo'limda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari oldiga qo'ygan dolzarb vazifalari, ularni yechimini topish, bitiruv malaka ishida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati, bitiruv malaka ishining asosiy maqsadi va vazifalari xaqida so'z yuritiladi.

II. ASOSIY QISM.

2.1. Tikuvchilik sanoatining hozirgi kundagi holati.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotidaga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Mustaqillikning o'tgan davri mobaynida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi vauning ko'pgina sohalarida barqaror o'sishga erishildi. Jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida, jumladan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy - marifiy sohalarda islohatlar amalgam oshirilishi natijasida mamalakatimizda bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohatlarning provardi iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali aholiga erkin va farovon hayotni ta'minlashdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan islohatlar islohatlar ichida yengil sanoat ham o'z o'rniga ega. Chunki, respublikamiz sanoat ishlab-chiqarishda yengil sanoat tarmog'i yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohatlar va ulardan ko'zlangan maqsadlarning bajarilishi sanoatning jadal sur'atda rivojlanishida ham o'z ifodasini topmoqda.

Respublikamiz miqyosida iqtisodiyotni rivojlanishi kichik biznesning rivojlanishiga bog'liq bo'lib, kichik tikuvchilik korxonalarini tashkil qilish asosida aholini tikuv mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda kichik biznes sub'ektlarini yalpi ichki mahsulotning qariyb 50 % dan ortig'ini ishlab chiqarmoqda.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va hususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Imtiyozli kredit" jamg'armasining resurs bazasiga ikki barobar oshirishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati uzaytirildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun berilgan kreditlarning eng uzoq muddati 12 oydan 18 oyga oshirildi.

Ko'plab ishlab chiqarilayotgan kiyimlarni konstruksiyalashda fan yutuqlariga va konstruksiyalash sohasida orttirilayotgan ko'p yillik tajribalarga tayaniladi. Shuningdek, amaliy antropologiya, materialshunoslik, kiyim tikish

texnologiyasi kabi o'zaro yaqin fanlar sohasida hamda tikuvchilik korxonalarida ishni tashkil etish va tejamkorlik borasida erishilgan yutuqlardan keng foydalaniladi. Shu maqsadda zamonaviy matematik metodlar va elektron hisoblash mashinalari tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Hozirda mavjud elektron hisoblash mashinalar kishining gavdasini o'lchash yo'li bilan olingan ma'lumotlarni ishlab chiqarish andoza detallarining juda ko'p hisoblash parametrlarini inobatga olgan holda murakkab hisoblarni yechish va turli tuman asboblari yordamida grafiklar yasash imkoniyatini to'ldiradi.

2.2. Tikuvchilik buyumlarining rivojlanishi

Yengil sanoat sohasida tashkil etilgan qo'shma korxonalar geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda sohani rivojlantirish borasida eng katta xorij sarmoyasiga ega bo'lgan (xorijiy investitsiya mablag'larini kiritgan) davlatlardan biri Koreya respublikasi hisoblanadi. Mazkur davlatning ulushi 38% ni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda esa Turkiya, Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar turadi.

Sohani yanada rivojlantirish maqsadida o'tgan yillarda 30 ta korxona ishga tushirilishi, 76 ta xududiy investitsion loyihaning amalga oshirilishi va barcha tumanlarda 1160 ta tikuvchilik sexi tashkil etilishi kutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrda "2013 yil Davlat investitsiya Dasturi to'g'risida"gi PQ-1855 sonli jami 147,7 million dollarga teng bo'lgan investitsiya o'zlashtirish belgilangan. Buning natijasida 2013 yilda 261,7 ming tonna ip kalava, 148,6 million m² tayyor ip gazlama, 40,6 ming tonna trikotaj mato, 138,8 million dona trikotaj mahsuloti, 25,5 million juft paypoq mahsulotlari, 47,3 milliard so'mlik tikuvchilik buyumlari ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

2.3.Bitiruv malaka ishida tanlangan model uchun qo'yiladigan talablar

Mahsulotni sifatli ishlab chiqarilishi loyihalash jarayonida hisobga olinadi, uni ishlab chiqarilganda va ekspluatatsiya davrida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni murakkab «tizim» deb baholash mumkin. Sifatni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonining har bir pog'onasida uni boshqarish kerak. Mahsulot sifatini boshqarish deganda, unga ta'sir etuvchi omillarni tinimsiz nazorat qilib, mahsulotni loyihalash, ishlab chiqish va iste'mol jarayonlarida yetarlicha sifat darajasini ta'minlab turish tushuniladi.

Mahsulotning sifati insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Mahsulotning sifati unga oid ko'rsatkichlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Shuning uchun sifat deganda, mahsulotning vazifasiga ko'ra, insondagi muayyan talablarni qondirishga yaraydigan xususiyatlari majmui tushuniladi. Har qanday buyum xususiyatlarga ega bo'lib, bular buyumni u yoki bu usulda tayyorlanganda yoki ekspluatatsiya jarayonlarida namoyon bo'ladi va miqdoriy hamda sifat darajasida ifodalanadi.

Buyum sifatini aniqlash — bu mahsulotga xos xususiyatlarning miqdoriy darajasini aniqlash va uni baholash demakdir. Mahsulot sifati unga ta'sir ko'rsatadigan yetakchi xususiyatlar nomlarini aniqlashdan boshlanadi. Sifat ko'rsatkichlar nomlarining ro'yxati mahsulotning vazifasiga bog'liq. Shu bois mahsulot sifatini baholashdan avval, unga xos inson (iste'molchi) talablarini qondiradigan xususiyatlarini aniqlash kerak. Shu bilan birga ishlab chiqarish talablarini ham unutib bo'lmaydi. Negaki, mahsulotni sanoatdan tashqarida, materiallar, energiya, inson mehnati va asosiy fondlar harajatisiz yaratib bo'lmaydi. Bundan sifat yaratiladigan mahsulotning murakkab tavsifi ekanligini bildiradi.

Iste'molchi talablari insonning o'z ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Ular ijtimoiy, estetik, ergonomik va ekspluatatsion talablarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy talablar - kiyimning aholi ehtiyojlariga mosligini, uni ishlab chiqarish va sotish zaruriyatini belgilaydi.

Funktsional talablar - kiyimning asosiy funktsiyasiga mosligini, iste'molchining psixologik xususiyatlari va tashqi qiyofasiga mosligini harakterlaydi.

Estetik talablar – shim sifatini baholashda muhim o'rin tutadi va kiyim ko'rinishining bezatilishi, kompozitsion yechimini harakterlaydi.

Ergonomik talablar – kiyimni kiyish mobaynida uning insonga qulay sharoit tug'dirish xususiyatlarini belgilaydi.

Eksplutatsion talablar – kiyimdan foydalanish va kiyish mobaynida uning tashqi ko'rinishining o'zgarmasligi, tez eskirmasligi va ma'lum muddatda xizmat qilish qobiliyatini belgilaydi.

Texnik – iqtisodiy talablar – kiyim konstruktsiyasining texnik jihatdan takomilligini, uni loyihalash va tikish, usullarini, kiyimni ishlab chiqarishga ketgan sarf-harajatlarni harakterlaydi.

Gulsiz sidirg'a gazlamalarni bichishga mo'ljallangan bo'rlama tayyorlash uchun andozalarni qarama-qarshi joylashtirsa ham bo'ladi. Agar bichiladigan gazlama yo'l – yo'l yoki katak bo'lsa, tikilayotganda yo'llari yoki kataklarini to'g'ri keltirish uchun bo'laklar mo'ljallangandan kattaroq qilib bo'rlanadi. Bunda bo'lak bichiladigan gazlama qaysi usulda to'shalishi, bo'lak tayyor kiyimning qaysi joyida qanday joylashishini hisobga olish kerak. Shunda kiyim bo'laklarining hamma tomonini barobar kengaytirmay, balki bir tomonini kengaytirib bo'rlash kifoya bo'ladi. Old bo'lakning bort tomoni, adipning bo'yin o'miziga yaqin tomoni, yoqaning qaytarma va uchlari kengaytiribroq bo'rlanadi.

Gazlama sidirg'a bo'lsa, chiqindi kamroq, guldor yoki tukli bo'lsa, ko'proq chiqadi, chunki tukli yoki guldor gazlamalar uchun andazalar joylashtirishda kengaytirib bo'rlash kabi qator shartlarni hisobga olish kerak. Andazalarni zichroq joylashtirish uchun, oldin katta bo'laklarni qo'yib, ular orasiga mayda bo'laklar joylashtiriladi.

Joylashmani bajarishda ayniqsa bichiq bo'laklar soniga e'tibor berish zarur. Simmetrik bo'laklar bir tomonga qarab qolmasligi uchun 1-jadvaldagi

bo`laklarning simmetriya belgisiga katta ahamiyat beriladi. Aks holda bitta bo`lak ikki marta bichib qo`yilishi mumkin.

Andozalar gazlama ustiga joylashtirilib bo`rlanadi. Joylashmadan chiqindi kam chiqishi uchun adipga, yeng astariga uloq qo`yilishi, adip ikki yoki uch bo`lakdan iborat qilib bichilishi mumkin. Bo`rlamada bo`r chizig`ining qalinligi 1-2 mm dan oshmasligi kerak. Bo`rlamada albatta kertiklar o`rni bo`rlanishi shart.

Bichishga mo`ljallangan gazlama ko`rikdan o`tkaziladi, to`qimachilik nuqsonlari aniqlanadi, dekatirovka qilinib (suv purkab yoki namlab) dazmollanadi.

Joylashmaning sifatini baholovchi ko`rsatkich chiqindi qiymatidir. Korxonada andozalar joylashmasi namunaviy sxemalar bo`yicha bajariladi. Namunaviy sxemalar-gazlamaning ma`lum eniga mo`ljallangan, kiyim andozalari turli razmer va bo`yi bo`yicha o`zaro moslashtirilgan, kam chiqindi chiqish imkonini beruvchi joylashmadir.

Hozirgi vaqtda zamonaviy korxonalarda turli model va bichimdagi kiyim andozalarini har xil enli gazlama ustiga ratsional joylashtirish bo`yicha tavsiyalar mavjud bo`lib, ularning aksariyati joylashmani bajarishdagi texnik shartlarda o`z aksini topgan.

2.4. Model ko`rinishi va tavsifi.

Kiyimni loyihalash talablar programmasini tuzishdan boshlanadi. Talablar ikki gruppaga ajratiladi: istemolchi (matlubotchi)lar talablari va sanoat-ekonomika nuqtai nazaridan qo`yiladigan talablar.

Ekspluatatsion talablar deganda, kiyimning vazifasiga va foydalanish sharoitlariga mosligi, qulayligi, chidamliligi, ishonchliligi, shaklining barqarorligi tushunadi.

Estetik talablar deganda, kiyimning modaga mosligi, yangi gazlamalardan tikilganligi, istemolchilarning estetik didlarini qondirishi tushuniladi.

Gigiyenik talablarga kiyimning issiqlik balansi, havo o'tkazuvchanligi, ichki (kiyim ostidagi) nam-terdan yoki tashqi nam (qor-yomg'ir) ta'siridan himoyalash darajasi, yengilligi, konstruksiyasining qulayligi (kishining normal fiziologik funksiyalariga halaqit bermasligi) kiradi. Gigiyenik talablar bir muncha umumiyroq bo'lib, ergonomik talablarni ham o'z ichiga oladi.

Ergonomik talablar esa antropometrik, gigiyenik va psixo-fiziologik moslikka oid bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi gruppaga texnologik, standartlashtirish va uning metodlari, tejamkorlikdan iborat talablar kiradi. Tejamkorlik loyihalash xarajatlari, ishlab chiqarishni texnologik, konstruktorlik va texnik jihatdan tayyorlash bilan bog'liq harajatlar, shuningdek, istemolchilarning undan foydalanish xarajatlari bilan xarakterlanadi.

	1-Modelni ko`rinishi va tavsifi</b></p> <p>Tanlangan birinchi modelimiz asosiy model bo`lib yoz fasliga mo`ljallangan. Ayollar va o`smir yoshidagi qizlar kiyishi uchun tavsiya etiladi. To`lalik qomati 164-84-92 o`lchamdagi ayollar beli kesimli ko`ylagi oldi qismida oval koketka chizig`ini yoqa o`mizi yuqori nuqtasidan yeng o`mizi kesigigacha, koketka ostida burmalar bilinar-bilinmas ko`rinadi, bel chizig`ida kesim berilgan, etak qirqimi tizzagacha quyi yubka etak qismidagi kengayishi bo`yicha eng katta miqdorda egallagan va bo`ksa chizig`ida esa bo`ksa kengligi bo`yicha modellashtiriladi. Yengi bir chokli o`tkazma kalta, lif bo`yin o`mizi koketkasi uchburchak shaklida, ko`ylak yengil ip gazlamalardan, shoyi va sun`iy gazlamalardan tikilishi mumkin. Men shoyi gazlamasini tavsiya etaman.
--	--



2-Modelni ko`rinishi va tavsifi
Klassik uslubda tikilgan bel kesimli ayollar ko`ylagi. Bu kiyim tanaga yopishib turadigon xisoblanib, yoqasiz. Kiyim old qismida bo`yin o`mizi kengligi yelkagacha o`yilib, old bo`lak qirqimi o`rtasida kesik chizig`i bo`lib planka o`rnatilgan. Kesik chizig`i bo`yicha burma o`rniga mayda pardozlovchi taxlamalar beriladi. Plankaga uchta tugma bir tizimda tikiladi. Yengi o`tqazma yeng, bu yeng kalta uslubda bichilgan. Silueti gavgdaga nim yopishgan. Bel va yubka qismlaridan iborat bo`lib yubka etak tomonga qarab toraygan. Yubka ort bo`lagi ikki qismdan iborat bo`lib, slitsali.



3-Modelni ko`rinishi va tavsifi
Tavsiya qilinayotgan model
tasnifi. Ko`ylak ayollar uchun
bahorning oxirlari yoz faslida
kiyish uchun tavsiya etiladi.
Ko`ylak lif qismida koketkadan
chiqqan assimmetrik burmali,
ko`krak qismi bo`rtma taxlamalar
bilan bezak beriladi. Koketka
ustida bezak gullardan
foydalaniladi, silueti gavadaga
nim yopishgan, ko`ylakni yubka
qismi to`g`ri bichiqda etak tomon
toraygan. Uzunligi tizzagacha
beli kesimli ko`ylakni lif qismiga
qizil rangdagi shoyi matosidan
tikilishi tavsiya etiladi.

2.5. Kiyim bichimi

Bichim deganda kiyim konstruksiyasining umumiy xususiyati to`shuniladi. Odam gavdasiga yopishib turish darajasiga qarab kiyimlar keng turadigan, sal yopishib turadigan, yopishib turadigan va trapetsiya shaklida bo`ladi. Birlashtiruvchi choklar qanday joylashganiga qarab, kiyimlar oddiy bichimli (o`tqazma yengli, (a) ), reglan bichimli (b), yaxlit bichimli bo`lishi mumkin.

Kiyimlar bichimi turlari

Oddiy bichimli kiyimning yon choklari, yelka choklari va yeng o`miz choklari bo`ladi. Reglan bichimli kiyimlarda old bo`lak qismi va ort bo`lak yelka qismi yeng bilan qo`shib bichib olinadi. Yaxlit bichimli kiyimlarda yeng bo`laklari kiyimning asosiy qismlari, ort bo`lagi va old bo`lagi bilan birga bichiladi.

Biroq, bichim bilan fasonni adashtirmaslik kerak, chunki bichim deganda kiyimning asosiy birlashtiruvchi choklari qanday joylashganligi va uning odam gavdasiga qanchalik yopishib turishiga oid umumiy xususiyatlar tushunilsa, fason deganda kiyimning tashqi ko`rinishiga oid barcha xususiyatlar tushuniladi. Demak bir xil bichimdagi kiyimning fasoni har xil bo`lishi mumkin [4].

Ko`ylaklarning konstruksiyalarining asosi old bo`lak, ort bo`lak, yeng, yoqadan iborat. Old va orqa bo`laklar kiyim fasoniga qarab bir necha qismdan iborat bo`lib, ular har xil choklar bilan birlashtirilishi mumkin.

Ko`krak atrofida tuzukroq yopishib turishi uchun vitachka ishlatiladi (ba`zan bel bo`ylab).

Ayollar kiyimining old bo`lagida asosan yelka qirgimidan, yoqa o`mizidan, yeng o`mizidan boshlanadigan vitachkalar bo`ladi.

Kiyim - bu badanni yopadigan nimaiki bo`lsa hammasi.

Libos - "kiyim kechak" so`zlari odatda hozir "ansambl" (frantsuzcha ensemble - "birgalikda") deb yuritiladigan to`shunchani yoki tarkibiy

qismlarining, qo'shimcha bezaklarining xarakteriga, rangi, fakto'rasiga va hokazog'a qarab ma'lum marosimlarga mo'ljallangan kostyumni bildiradi.

Garderob - so'zining dastlabki ma'nosi - "kiyimxona" bo'lib, hozirda ham "kiyim shkafi", "kiyim turadigan joy" ma'nosini bildiradi. Lekin bir kishining kiyimlari yig'indisi ham garderob deyiladi.

Yeng muhim termin - kostyum (frantsuzcha costume - qiyinish), kiyimning mazkur xalq, tabaqa, davr uchun turg'un, tipik umumiy bo'lgan formasi shu termin bilan ataladi.

Proportsiyalar - bu kostyum qismlarining o'lchamlariga binoan bir - biriga va odam gavdasiga taqqoslangan nisbatlari. Kiyimning bo'yi, eni, ko'krak qismi bilan yubkasining, yenglarining, yoqasining, bosh kiyimining, detallarining hajmi, uzunligi, kostyum kiyilgan qad - qomatni ko'rib idrok etishga, uning o'lchamlari monandligini fikran baholashga ta'sir ko'rsatadi.

Rang - kostyumdagi yeng ifodali vositalardan biri. U odamlarning kayfiyatig'a, ahvoliga, hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Odamning rangni idrok etishi atrof - tabiat sharoitida tabiiy yo'l bilan tarkib topgan bo'lib, har qanday individual xususiyatlar mavjudligiga qaramay, rangni idrok etishda ilmiy asoslangan umumiy qonuniyat bor. Masalan: qizil rang - quyosh, olov, qon, hayot ramzi. Bu rang odatda quvonch, nafosat, yaxshilik, ilqlik bilan bog'liq: lekin yana tashvishni, xatarni, hayot uchun xavfni ham bildiradi.

Oq rang - ko'pincha yangilik, ozodalik, yoshlik ramzi, lekin sokinlikni, jonsizlik va hatto ba'zi hllarda motamni ham bildiradi. Qora rang - fizika nuqtai nazaridan bo'shliq, nur va rang yo'qligi; uning an'anaviy ma'nosi - hamma "tunlik", yomon, insonga dushman narsalar, g'am - g'ussa va o'lim. Boshqa ranglar ham "mazmun nagruzkasiga" ega, lekin bu anchagina shartli va har xil. Uslub - tartib, sistema ma'nolarini bildiradigan ba arabcha so'z yunon tilidan - stubeus - mumga yozish uchun uchi ochilgan cho'p qalam so'zining adabiyot va san'atga nisbatan ma'nosini aynan bildiradi. Uslub (stil) adabiyot va san'atda asarning, avtorning yo'li, xarakteri, g'oyaviy - badiiy xususiyatlarini bildiradi.

Kiyimga nisbatan olganda uchta asosiy uslub bor. Klassik uslub - (boshqacha aytganda - odmi, ishbop, xushbichim) yeng turg'un, asrlar mobaynida "tanlangan", deyarli o'zgarmaydigan, "modadan tashqari". Kostyum - shim yoki kostyum-shim, nimcha, "inglizcha" palto, plash erkaklar kiyimida, yengli ko'ylak, bluzka yoki sviter bilan sarafan, to'g'ri va taxlama yubkali "shanel", kostyum ayollar kiyimida klassik hisoblanadi.

Sport uslubidagi kiyim - (sport mashg'ulotlari ucho'ngina emas, harakat qilish uchun, turli ishlar uchun, faol dam olish uchun qulay.

Romantik uslub - bu "fantaziya", "xotiralar", "izlanishlar" sohasi. Bu erda tarixiy, milliy (folklor) kostyum elemiyontlaridan foydalaniladi.

Kiyim ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bular gigienik, estetik va ekspluatasion talablardir.

Kiyimlar gigienik jihatdan kishini tashqi muhitdan (sovuqdan, issiqdan, yomg'irdan, mexanik va ximik jarohatlanishdan) himoya qilishi va suv o'tqazmaydigan, havo va bug'ni yaxshi o'tqazadigan, terni shimadigan bo'lishi kerak.

Estetik jihatdan bejirim, odamga yarashadigan, zamonaviy modaga mos bo'lishi kerak.

Ekspluatasion talablarga binoan kiyim harakat qilishda, nafas olishda, kiyib yechishda qulay bo'lishi kerak.

Masalan: ich kiyim va yozlik kiyim havo va bug'ni yaxshi o'tqazadigan, nam shimadigan bo'lishi kerak. Kiyim ma'lum darajada pishiq, chidamli, Yengil va mayin bo'lishi kerak.

Odam faqatgina o'pkasi bilan emas balki terisi bilan ham nafas oladi, ya'ni tashqi muxitdan kislorodni yutib, tashqariga karbonat angidrid chiqaradi. Buning uchun kiyim bo'shlig'ida havo almashib turishi kerak. Kiyim sintetik materiallardan tikilgan bo'lsa, old va ort bo'laklari va yengida havo almashinadigan to'r yoki teshiklar qilinishi kerak. Qo'sh qavatli gazlamalardan tikilgan kiyimlar esa kengroq qilib bichilishi kerak. Ich kiyim shimib olgan

namlikni tashqi muhitga sekinlik bilan berib quriydigan bo'lishi kerak. Shuning uchun ular ko'pincha paxta yoki zig'ir tola gazlamalardan tikiladi.

Qishgi kiyim organizmning issiqlik sarflashini kamaytirib, odam salomatligini va ish qobiliyatini saqlashga ko'maklashadi. Odam qanchalik jismoniy ish qilsa, u shuncha tashqi muhitga issiqlik chiqaradi. Bunda kiyimning issiqlikka qarshiligi kam bo'lishi kerak (hamda aksincha).

Terlash jarayoni normal va uzluksiz bo'lishi uchun kiyim tagiga havo o'tib turishi, kiyim haddan tashqari keng yoki juda tor bo'lmasligi kerak. Kiyim og'ir bo'lsa, kishini tez charchatadi, kishining ish qobiliyati kamayadi. Kiyimning issiqlik sarflash xususiyatini kamaytirmasdan uni yengillashtirish zarur.

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan klassifikasiyaga ko'ra kiyimlar 2 sinfga: maishiy va ishlab chiqarish kiyimlariga bo'linadi.

Maishiy kiyim kichik sinflarga bo'linadi: ust kiyimlar, Yengil kiyimlar ich kiyimlar, bosh kiyimlar, ko'rpa-yostiq buyumlari, korset buyumlari.

Ustki kiyimlar - palto, yarim palto, plash, jaket, pidjak, kurtka, shim.

Yengil kiyimlar - ko'ylak, bluzka, sorochka, fartuk, yubka, xalat.

Ich kiyimlar - pijama, to'ngi ko'ylak, trusi, kalson, ko'palnik, plavqilar.

Ko'rpa-yostiq buyumlari - ko'rpa jildlari, choyshab, yostiq jildlari, ko'rpa.

Korset buyumlari - korset, gratsiya, byustgalter.

Bosh kiyimlar - telpak, do'ppi, shlyapa, panama, beret, furajka, kepka, ro'mol. Guruhlar kichik guruhlarga bo'linadi.

Jinsga qarab: erkaklar, ayollar, o'smir o'g'il va qiz bolalar, katta maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalar, kichik maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalar, maktab yoshigacha bo'lgan o'g'il va qiz bolalar, yasli yoshidagi o'g'il va qiz bolalar, chaqaloqlar kiyimlariga bo'linadi [5]

Mavsumga qarab quyidagi: qishgi, yozgi, masumbop turlarga bo'linadi.

2.6. Kiyim sifati haqida umumiy ma'lumot.

Mahsulot sifati, uning raqobatbardoshliligi xar doim fanda ilmiy texnik taraqqiyotining, sanoatda esa mehnat intizomi, madaniyati, tashkiliy darajasini umumlashtirilgan ko'rsatkichi bo'lib kelgan.

Yuqori sifatli mahsulot muammolari nafaqat texnik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. Mahsulot sifatli buyum tayyorlashda xisobga olinadi, ishlab chiqarganda ta'minlanadi va eksplutatsiya davrida namoyon bo'ladi. Demak sifatni murakkab "tizim" deb baxolash mumkin. Sifatni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonining xar pog'anasida ishni idora qilmoq zarur. Xozirgi paytda sifat nafaqat bevosita buyum ishlanadigan sanoat tarmog'ida balki tarmoqlararo muammoga aylangan chunki iste'molga tayyorlangan mahsulot sifatini yuzlab turli tarmoq korxonalari ta'minlaydi.

Estetik jihatdan bejirim odaga yarashadigan zamonaviy modaga mos bo'lishi kerak. Eksplutatsion talablarga binoan kiyim xarkat qilishda, nafas olishda, kiyib yechishda qulay bo'lishi kerak.

Gigienik sifat ko'rsatkichlari sanitariya va gigiena me'yorlariga moslikni harakterlab, kiyim ostida qulay mikroiklimni ta'minlashi kerak. Gigienik moslik ko'rsatkichi kiyim ostidagi havo almashinuvi darajasini bildiradi. Masalan, yuqori haroratli tashqi muhitga mo'ljallangan kiyimning higienik ko'rsatkichlari-gazlamaning higienik xususiyatlariga bog'liq. Ushbu ko'rsatkich o'z navbatida kiyim paketining havo o'tkazuvchanligiga, bug' o'tkazuvchanligiga hamda kiyimning ratsional konstruktiv yechimiga bog'liq [6].

Gigienik talablar - kiyim odam sog'lig'iga zarar yetqazmasligi, erkin harakatlanish vaqtida xalaqt bermasligi kerak, yani yozda kiyiladigan kiyimlar yengil, xavo o'tqazuvchan bo'lishi, quyosh nurini qaytaruvchan bo'lishi kerak. Baxor va kuz fasllarida kiyiladigan mavsumiy homilador ayollar kiyimi tanadan chiqqan issiqlikni saqlovchi, yengil va qulay bo'lishi talab etiladi. Kiyimga ishlov berishda iloji boricha gazlamaning yengil bo'lishiga, bichimi esa qulay bo'lishiga, choklarni kamroq qo'llanilishiga etibor qaratiladi.

Ishlab chiqarish talabi deganda - buyumni korxonada ishlab chiqarish jarayonidagi yuzaga keladigan talablari tushuniladi. Ayollar kiyim konstruktsiyasi asosi bo'yicha bir necha modellarni tayyorlash muxim bo'ladi. Ayollar kiyimini ishlab chiqarish uchun ketadigan gazlamadan yuqori tejamkorlik bilan foydalaniladi. Ayollar kiyimlarini tikishda ishlab chiqarish korxonasi o'zida bor mexanizatsiyadan va shart sharoitlardan foydalanadi. Ayollar kiyimini tayyorlayotgan korxonaning mahsulotlari yuqori unumli bo'lishini etiborga olish kerak, natijada mahsulot tannarxi arzon, samaradorligi yuqori bo'lishiga erishiladi.

2.7. Bitiruv malaka ishida tanlangan modellarning vazifasi

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan kiyimlarning sinflanishi uning vazifasini aniqlab beruvchi himoya funksiyasi belgisiga ko'ra aniqlanadi, bu belgiga ko'ra kiyimlarni 3 ta sinfga bo'lish mumkin: maishiy kiyimlari va sport kiyimlari.

Bu kiyim sinflari o'z navbatida kichik sinflarga, turlarga guruh va kichik guruhlarga bo'linadi, ayniqsa maishiy kiyimlar sinfi ko'p sonli bo'lib ular o'z navbatida foydalanish sharoitiga qarab quyidagi kichik sinflarga bo'linadi, 1- ish kiyimlar; 2- ko'ylak kostyumlar 3 – ust kiyimlar: palto, kichik palto, plashtlar kurtkalar va xokozolar. Korset buyumlari, bosh kiyimlar kepka, furajka, shapka, shlyapa panama, 6 turli xil qo'lqoplar har bir kichik sinf o'z navbatida yana turlarga bo'linadi. Masalan 1.2 ko'ylak kostyumli kichik sinflar gurux quyidagi turlarga bo'linadi: 2.1 pidjaklar; 2.2 jaketlar; 2.3 kurtkalar; 2.4 jaketlar; 2.5 shimlar; 2.6 ko'ylaklar; 2.7 yupkalar va xokozolar.

Jins va yosh alomatlariga ko'ra kiyimlarni quyidagi guruxlarga bo'linadi: E erkaklar, A ayollar va B bolalar kiyimlariga ajratiladi. Bolalar kiyimi yoshiga ko'ra o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi: chaqaloqlar kiyimi; bog'cha yoshidagi o'g'il va bog'cha yoshidagi qiz bolalar kiyimi; maktab yoshidagi bolalar kiyimi; o'smirlar kiyimi. Kiyimlar yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab:

Y yozgi; Q qishki; B bahorgi; K kuzgi kiyim turlarga bo'linadi, bu kiyimlar qayerda kiyilishiga qarab quyidagilarga bo'linadi.

Kundalik kiyimlarga: uy kiyimlar; tantanali kiyimlar; ish kiyimlarga ajratiladi.

Sport kiyimlari sinfi sport turiga qarab kichik sinflarga yosh va jins alomatlariga qarab guruxlarga bo'linadi, ishlab chiqarish kiyimlariga esa vazifasiga ko'ra quyidagi 3 turga bo'libadi:

3.1 maxsus kiyimlar;

3.2 forma kiyimlar;

3.3 texnologik kiyimlar.

2.8 Tanlangan model xususiyatidan kelib chiqib gazlama tanlash va asoslash

Materiallarning turlari va assortiment so'zi bilan belgilanadi assortiment bu inglizcha so'z bo'lib u "kompleks" yoki to'plam ma'nosini bildiradi.

Ishlab chiqarish usuliga ko'ra tikuvchilik materiallari to'qima (gazlamalar), trikotaj, noto'qima va boshqa materiallarga bo'linadi.

Shundan tikuvchilikda eng keng qo'llanuvchi gazlamalardir. Tikuv korxonalarida turli artikuldagi gazlamalar ishlatiladi.

To'quvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan gazlama turlari ichida ip gazlamalari alohida o'rinda turadi ularning asosiy qismini klassik paxta tolasidan ishlab chiqarilgan turlari tashkil qiladi. Biroq ular bilan birga paxta tolasi viskoza, lavsan, nitron tolalari bilan aralashmasidan olinuvchi gazlamalar ham keng tarqalgan. Har bir yili ishlab chiqarilgan paxta tolali gazlamalarning (ip gazlamalar) 10-12 % yangi tuzilishdagi va pardozlanishdagi gazlamalar xisobiga o'zgaradi.

Ip gazlamalari karda yigirish, qayta tarash yoki apparat usulida olingan turli tuzilishdagi (yakka pishitilgan, shakldor, aralash tolali tarkibida va hakoza) va chiziqli zichligi 5,88 dan to 263,2 teksgacha bo'lgan iplardan ishlab chiqariladi.

Ip gazlamalari turli rangdagi, shakldagi va o'lchamdagi gul bosilgan sidirg'a rangli oqartirilgan chipor va oqartirilgan xom holda ishlab chiqariladi. Shu jumladan maxsus pardozlashlar ham qo'llaniladi.

Ip gazlamalar turli maqsadlar uchun ishlatiladi ular ichki kiyim; erkaklar, ayollar, va boshqalar ko'ylagi; kundalik, maxsus va sport kiyimlar, astar, qat; pardalik va hakoza sifatida ishlatiladi .

Ip gazlamalar turmushda hamma vaqt zarur va keng ishlatiluvchi gazlamalardir. Chunki ularning gigenik xossalari (gidroskopligi, havo o'tkazuvchanligi va boshqalar) yaxshi, tashqi ko'rinishi chiroyoli mustahkamligi, turli deformatsiyalarga ta'siriga chidamliligi yuqori, yengil yuviladi, tez quriydi, yaxshi dazmollanadi. To'quvchilik buyumlarini tayorlaganda deyarli hech qanday qiyinchilik tug'ulmaydi bichish to'shamiga yaxshi taxlanadi, siljuvchanligi kam, bichish jarayonida surilmaydi va qisqarmaydi qirqilgan joydan iplari to'kilmaydi, tikish paytida iplari ignalar bilan shikastlanmaydi, choklar yonidagi iplar siljimaydi, biroq ip gazlamalari ko'p g'ijmlanadi, ishqalanishga chidamliligi kam, yuvganda kirishadi.

O'sha xususiyatlarni yaxshilash uchun ip gazlamalari paxta va sintetik tolalari aralashmasidan ishlab chiqarilayapti.

Keng tarqalgan ip gazlamarning tavsiflari. amaliy preyskurantda 1300 dan ortiq artikuldagi turmushda va texnikada ishlatuvchi ip gazlamalari kiritilgan bo'lib, ular 17 guruhga ajratilgan. Bulardan eng keng ishlatiladigan ip gazlamalar 1-6 guruhlarini tashkil qiladi.

Birinchi guruh – chit gazlamalar. Chit – klassik ip gazlamalardan biri. Uni ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ayollar va erkaklar ko'ylakbop gazlamalarda keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Chit polotno o'rilishda tanda va arqoq yo'nalishi chiziqli zichligi ishlab chiqariladi. Chitlarning eni 62 – 100sm, yuza zichligi bosilgan, sidirg'a rangli bo'ladi . Chit gazlamalari pardozlanishiga ko'ra ayollar va bolalar kiyadigan kiyimlar, erkaklar ko'ylagi ichki kiyimlar va choyshablar.

Ikkinchi guruh – surp gazlamalari. Surp – chitga nisbatan dag'alroq, yuza zichligi 124 – 160 g/m, polotno o`rilishda sidirg'a rangli va gul bosilgan holda ishlab chiqariluvchi ip gazlamadir.

Tanda va arqoq iplarning chiziqli zichligi, 22 – 50 teks, eni esa 80 – 150 sm. Gul bosilgan surplar bolalar kostyum shimlariga, ayollar va erkaklar ko`ylagiga ishlatiladi. Sidirg'a ranglilari esa maxsus ich kiyimlarga, ustki kiyimlar ustki kiyimlarning cho`ntaklari va qotirma qismlar (bo`ylamalar) sifatida ishlatiladi.

Uchunchi guruh – choyshabbop gazlamalar. Bu guruhga kiruvchi gazlamalar uchta guruhga bo`linadi: surp guruhchasi, mitkal guruhchasi va maxsus gazlamalar guruhchasi.

Choyshabbop surplar – oddiy surplardan o`zining pardozi bilan farqlanib u oqartiradigan holda ishlab chiqariladi va choyshablar tibbiyot xodimlari va oziq ovqat savdosi bilan oziqlanuvchilarning maxsus kiyimlari uchun ishlatiladi.

-tikib chiqariladigan ayollar beli kesimli ko'ylagini ishlab chiqarish bo'yicha bozorlar tadqiq etiladi, raqobatchi korxonalar mahsulotlarini bozordagi taklifi va unga xaridorlarni talabi o'rganiladi;

-tikiladigan ayollar beli kesimli ko'ylagining bir nechta eskiz-fasonlari dizaynerlar tomonidan ishlab chiqiladi;

-eng optimal variantdagi, kam xarajatli va zamonaviy fasondagi ayollar beli kesimli ko'ylagi eskizi tikib chiqarish uchun tanlanadi;

- ayollar beli kesimli ko'ylagini tikishga mos gazlamalar va zaruriy xomashyolar sotib olish smetasi tuzilib, eng arzon tushadigan bozorlardan xarid qilinadi, olib keltiriladi;

-dastlab gazlamalar bichishga tayyorlash uchun sifat nazoratidan o'tkaziladi, bichish stoliga o'tkaziladi;

- gazlama bichiladi, bichilgan qismlar nazoratdan o'tkaziladi, tikish tsexiga o'tkaziladi;

- ayollar beli kesimli ko'ylagi tikib tayyor bo'lgach, kerakli bezaklar yoki akksesuarlar bilan bezak beriladi yoki ishlov beriladi;

-tayyor mahsulot sifat nazoratidan o'tkazilib, mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud etketkalar mahsulotga qadaladi;

-tayyor bo'lgan ayollar beli kesimli kuylagi o'ramlarga joylashtiriladi va tayyor mahsulot omboriga joylashtiriladi yoki tegishli bozorlarga tarqatiladi.

“Ziyoda” kichik korxonasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi*(ming so'mda)*

№	Ko'rsatkichlar	2015 yil biznes rejada	2016 yil biznes- rejada	2016 yil biznes- rejani 2015 yil biznes rejadan farqi
1	Solishtirma narxlarda	2 275 000,0	2 450 000,0	+175 000,0
2	Amaldagi narxlarda	2 625 000,0	2 975 000,0	+350 000,0

Korxona ayollar kuylagini ishlab chiqarishni solishtirma baholarda 2016 yil biznes-rejasidagi ko'rsatkichlari 2015 yil biznes rejasidagi ko'rsatkichlardan 175 000,0 ming so'mga, amaldagi baholarda esa 350 000,0 ming so'mga ko'pdir. Bunda bozorda mahsulotga talabni shakllantirish va oshirish maqsadida 2016 yilda yangi modeldagi ayollar beli kesimli kuylagini tikib chiqarish yo'lga qo'yishni maqsad qilib qo'yilgan.

Korxona mahsulot tikib chiqarishda kerakli xomashyolarni Namangan shahar hududidagi, Qo'qon shahridagi va Toshkent ulgurji bozorlaridan xarid qilib keltiradi.

8-jadval

**“Ziyoda” kichik korxonasi ayollar beli kesimli kuylagini tikib chiqarish
uchun xarajatlar**

(ming so'm)

№	Xarajatlar	2015 yil biznes rejada	2016 yil biznes-rejada	Farqi; +;-
1	XOm-ashyo xarajatlari	1 588 870,5	1 561 875,0	-26 995,5
2	Ish haqi xarajatlari	240985,5	270 725,0	+29 739,5
3	Ijtimoiy xarajatlar	93 943,5	104 125,0	+10 181,5
4	Amortizatsiya ajratmalari	8 169,0	20 825,0	+12 656,0
5	Boshqa xarajatlar	110 281,5	124 950,0	+14 668,5
	Jami	2 042 250,0	2 082 500,0	+40 250,0

“Ziyoda” kichik korxonasi 2016 yilda ayollar kuylagini tikib chiqarish uchun jami 2 082 500,0ming so'mlik xarajat qilishni rejalashtirgan bo'lib, bu 2015 yil biznes rejasidan 40 250,0 ming so'mga ko'pni tashkil etadi. Ayollar beli kesimli kuylagini ishlab chiqarishni ishlab chiqarish hajmi ortganligi sababli, unga qilinadigan sarf-xarajatlar ham ortishi mumkinligi ko'zda tutilgan.

Xarajatlar tarkibidagi xodimlarga to'lanadigan oylik maosh xarajatlari zanjirli bog'lanish usulida tahlil etib chiqamiz.

9-jadval

**Zanjirli bog'lanish usulining oylik maosh xarajati o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni
aniqlashda qo'llanilishi**

Ko'rsatkichlar	2015 biznes rejada	2016 yil biznes rejada	Farqi (+,-)
1. Ishchilar soni, kishi	20	22	+2
2. Oylik maosh miqdori, so'm	1 004 106,25	1 025 473,49	+21 367,24
3. Jami oylik maosh uchun xarajat, so'm	20 082 125,0	22 560 416,8	+2 478 291,8

Ishchilarga oylik maosh uchun xarajatlar summasining o'zgarishi- 2 478 291,8 so'm, bunga ta'sir ko'rsatgan omillarni hisoblash uchun, qo'shimcha shartli ko'rsatkich (reja baho va haqiqiy norma)ni aniqlaymiz.

$$1\ 004\ 106,25 \times 22 = 22\ 090\ 337,5 \text{ so'm}$$

Oylik maosh uchun 2015 yil biznes rejasidan 2016 yil biznes rejasida ortiq sarflanishiga:

a) normani o'zgarishining ta'siri:

$$22\ 090\ 337,5 - 20\ 082\ 125,0 = Q2\ 008\ 212,5 \text{ so'm}$$

b) maosh summasini o'zgarishi

$$22\ 560\ 416,8 - 22\ 090\ 337,5 = +470\ 079,3 \text{ so'm}$$

Ikkala omilning ta'siri:

$$2\ 008\ 212,5 + 470\ 079,3 = +2\ 478\ 291,8 \text{ so'm}$$

Korxonada jami ishlovchilar soni 2015 yilda 20 kishini tashkil etib, 2016 yilda esa 22 kishi rejalashtirildi.

2016 yilda ishchi-xodimlarni malakasini oshirish maqsadida malaka oshirish kurslarida 4 nafar xodimni o'qitish rejalashtirilgan. Ajratilgan mablag' 2 000,0 ming so'mni tashkil qiladi.

10-jadval

**“Ziyoda” kichik korxonasining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida
ma'lumot**

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2015 yil biznes rejada	2016 yil biznes-rejada	Farqi +;-
1	Mahsulot sotishdan tushadigan tushum	2 625 000,0	2 975 000,0	+350 000,0
2	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	2 042 250,0	2 082 500,0	+40 250,0
3	Mahsulot sotishdan yalpi daromad	582 750,0	892 500,0	+309 750,0
4	Moliyaviy faoliyatdan boshqa xarajatlar	98 800,0	180 400,0	+81 600,0
5	Soliq to'lagunga qadar moliyaviy natija	483 950,0	712 100,0	+228 150,0
6	Foydadan soliq,	24 197,5	35 605,0	+11 407,5

7	Sof foyda	459 752,5	676 495,0	+216 742,5
8	Mahsulot sotish rentabelligi, %	22,2	30,0	+7,8
9	Mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi,%	22,5	32,5	+10,0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Ziyoda" ishlab chiqarish korxonasida ayollar beli kesimli kuylagini ishlab chiqarish biznes reja ko'rsatkichlari to'la bajariladigan bo'lsa, korxona samaradorligi 2015 yilga nisbatan oshadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rentabelligi mos ravishda 7,8 va 10,0 foizga ortishi rejalashtirilgan.

VI.MEHNAT MUHOFAZASI

6.1. Yengil korxonalarida titrashdan saqlanish.

Sanoat korxonalarida mashina va mexanizmlarning xarakati natijasida har xil titrashlar vujudga keladi. Bu titrashlar ba'zi uchastkalarda bitta va ba'zi uchastkalarda bir necha mashina va mexanizmlarning xarakati ta'sirida bo'lib, ba'zan zo'rayishi va ba'zan susayishi xodisalari kuzatiladi va bu organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Titrash xosil qiluvchi mashinalar orasida transport vositalari, katta xajmdagi qo'zg'almas agregatlar, qo'lda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar mavjud.

Texnika taraqqiyoti natijasida zamonaviy mexanika-mashinasozlik korxonalarida turli-tuman jixozlarning ko'payishi, shuningdek bu mashinalar unumdorligini oshirishga talabning kuchayganligi, qo'l bilan bajariladigan vazifalarni ko'proq mexanizmlar zimmasiga yuklash natijasida insonga ta'sir etuvchi qo'shimcha xodisa-titrash xodisasini keltirib chiqarmoqda. Titrash sanoatda ishchining ish unumdorligini kamaytiribgina qolmasdan, balki uning sog'ligiga xam ta'sir ko'rsatishi va bu ta'sirning oldi vaqtliroq olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib kelishi aniqlandi. Shuning uchun ham titrashga qarshi kurash muxim ahamiyatga ega.

TITRASHNING FIZIK XUSUSIYATLARI

GOST 24346-80 "Titrash: atamalar va tushunchalar"da "titrash" deb nuqta yoki mexanik tizimning, xech bo'lmaganda bitta koordinat bo'ylab, vaqt birligida navbatma-navbat ortib va kamayib turuvchi xarakatiga aytiladi.

Titrash mashina va mexanizm qismlaridagi kuchlarning nomuvofiq xarakati natijasida kelib chiqadi. Bunga mexanizmlarning chiziqli xarakatini aylanma xarakatga aylantiruvchi krivoship-shatun mexanizmlarining xarakati, silkituvchi xarakat xosil qiluvchi shibbalash qurilmalari, shuningdek

posangilashtirilmagan aylanma xarakat qiluvchi qismlar, masalan, qo`lda ishlatiladigan silliqlovchi mashinalar. stanoklarning silliqlovchi va qirquvchi qismlaridan kelib chiqadigan titrashlar misol bo`la oladi.

Titrashni ba`zan ishqalanuvchi va birikuvchi mexanizmlar (masalan podshipniklar, tishli g`ildiraklar va x.k.) keltirib chiqaradi.

Umuman mexanizmlardagi muvozanatning buzilishi titrashning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Titrashning inson organizmiga ta`siri asosan uning mexanizmga ta`sir ko`rsatuvchi kuchlar bilan uzviy bog`liq. Bunda titrash xosil qiluvchi kuch butun tizimga yoki uning ayrim bir bo`lagiga ta`sir qilishi mumkin. Misol tariqasida muvozanati buzilgan xolda engil tebranish xosil qilayotgan mexanizm va o`nqir-cho`nqir yo`ldan xarakatlanib borayotgan transport tizimini ko`rsatish mumkin.

Sinusoidal qonuniyat asosida xosil bo`layotgan titrashning birliklari sifatida, titrash amplitudasi X_m , titrash tezligi V_m , titrash tezlanishi A , titrash davri t va titrash chastotasi f bilan tavsiflanadi. Bunda $f = 1/t$ -ekanligini eslatish kerak.

Fizik xossasiga asosan tebranish amplitudasi titrash tezligi va tezlanishi orasidagi ma`lum boshlanish borligini ularning vaqtga nisbatan funktsiya sifatida, ya`ni $X_m = X(t)$ yoki $V_m = V(t)$ asosida olib qarasak, unda

$$V_m = X(t)dt$$

Bo`ladi.

Bu formulalar taxlilini titrash xar xil amplituda va davrga ega bo`lgan cheksiz sinusoidal silkinishlar yig`indisi sifatida tasavvur qilish mumkin. Titrash davomiy takrorlanuvchi bo`lsa, unda uning chastotasi xam o`zgaruvchan bo`ladi (masalan  $f_n = nf$ , bunda  $n$ -sonlar qatorini bildirsa,  $f$ -boshlang`ich titrash chastotasini bildiradi).

Agar titrash ma`lum davrga ega bo`lmasa (masalan, to`satdan bo`lgan turtki yoki qisqa muddatli titrash xodisasi) bunda uning sinusoidal tashkil

etuvchi cheksiz katta miqdorni tashkil etishi va uni aniqlash uchun maxsus xisoblanish talab qilinadi.

SHuning uchun xam davriy va kvazidavriy titrash xodisasini diagrammada diskret (uzilgan) va qisqa muddatli yoki to'satdan bo'lganini esa uzilmagan tartibda ko'rsatish mumkin. Bu xolatlar ayrim-ayrim, qo'shilgan xolda bo'lishi mumkin.

Xar xil chastotadagi titrashlarning qo'shilgan ta'sirini aniqlaganda ularning ma'lum parametrlari (masalan, tezligi) o'rta geometrik miqdorlari yig'indisi sifatida qarash mumkin.

$$V = V_1^2 + V_2^2 + \dots + V_n^2,$$

bunda: n - spektr tashkil etuvchilarining soni.

Bundan

$$V_{\Sigma} = \sqrt{\sum_{i=1}^n V_i^2}$$

kelib chiqadi.

Agar tebranish spektri uzilmagan bo'lsa, unda titrash chastotalari oralig'i Δf ma'lum bo'lishi kerak. Agar f_1 pastki va yuqori chastotada bo'lsa, unda oraliqni ifodalovchi chastota o'rta geometrik chastota sifatida qabul qilinadi.

$$f_{o'rt,geom} = \sqrt{f_1 \cdot f_2}$$

O'rta geometrik oktava oraliqlari titrash uchun standartlashtirilgan va u quyidagicha yoziladi:

$$1, 2, 4, 16, 31.5, 63, 125, 250, 500, 1000 \text{ Gts.}$$

Titrash parametrlarining absalyut qiymatlari juda keng chegaralarda o'lchanganligi sababli, ilmiy tekshirish ishlarida titrashning logarifmik darajasi ishlatiladi va bu daraja detsibel (DB) bilan belgilanadi.

$$L_v = 10 \lg (V^2/V_0^2) = 20 \lg (V/V_0),$$

bunda: V - ma'lum chastota oralig'idagi titrash tezligi: $V_0 = 5 \cdot 10^{-8} \text{ m/s}$ xalqaro standart.

6.2 Titrashni insonga ta'siri. Titrashni normalash.

Titrash umumiy va qisman bo'lishi mumkin. Umumiy titrashda inson organizmi butunlay titrash ta'sirida bo'ladi, qismanda esa inson organizmining ba'zi bir qismlarigina titrash ta'siriga tushadi. Umumiy titrashga transport vositalarini boshqaruvchilar, shtamp tizimlarini, yuk ko'tarish kranlari va boshqa vositalarni boshqaruvchilar umumiy titrash ta'siri ostida bo'ladi.

Qisman titrash ta'siriga qo'lda ishlatiladigan elektr va pnevmatik qurilmalar bilan ishlayotganlar (qo'lda silliqlash ishlarini bajaradigan vositalar, elektr drellari, betonni shibbalovchi vibratorlar va x.k.) tushadi. Ko'pincha ishchilar xar ikkala titrash ta'sirida bo'ladi.

Umumiy titrashning 0,7 Gts dan kichik bo'lgan chastotalari umuman titrash kasalligiga olib kelmaydi, ammo bunday chastotadagi titrashlar dengiz to'lqinlari singari bo'lganligi sababli, dengiz kasalligiga olib kelishi mumkin. Bunda odam ichki a'zolarining muvozanati buzilishi kuzatiladi.

Inson organizmining deyarli xamma qismlarida xar xil chastotadagi titrashlar mavjud. Masalan, odam boshi, bo'yni, yurak qismlariga titrashlar tizimi sifatida qaralishi mumkinki; bu o'ziga yarasha og'irlikka ega bo'lib, prujinasimon vositalar yordamida titrashlar vujudga keltiradi va bu titrashlarni so'ndirishga xarakat qiluvchi qarshiliklar guruxlari xam mavjud. Agar bu titrovchi qismlarga tashqaridan xuddi shu chastotadagi titrashlar ta'sir ko'rsatsa, organizmda rezonans vujudga kelishi mumkinki, bu titrashni bir necha o'n marta ortishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, organizm qismlarida siljishni vujudga keltiradi.

Masalan, tik turib ishlaganda bosh, elka, bo'yin va umurtqa qismlarining titrashi 4-6 Gts ni tashkil qiladi. O'tirib ishlaganda boshning elkaga nisbatan titrashi 25-30 Gts ni, ko'pchilik ichki a'zolarining titrashi 6-9 Gts atrofida

bo`ladi. Xuddi shunday chastotadagi titrash ta'siriga tushganda yomon asoratlar kelib chiqadi, ba'zan bu mexanik jaroxatlarga olib kelishi mumkin.

Titrashning doimiy ta'siri esa titrash kasalligining kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Bunda titrashning markaziy nerv tizimlariga ta'siri natijasida organizmning fiziologik funktsiyalari buziladi. Bu xol bosh og`rig`i, bosh aylanishi, uyquning yomonlashuvi, mexnat qobiliyatining susayishi, yurak faoliyatining buzilishi bilan ifodalanishi mumkin.

Qisman titrash qon tomirlaridagi qonni quyuqlashtiradi. Bu xolat asosan tananing oxirgi qismlari bo`lgan qo`l panjalaridan boshlanib, butun qo`lga o`tadi va yurakdan kelayotgan qonning o`tishini yomonlashtiradi va bu bilan qon ta'minoti susayadi. Shuning bilan birga titrash ta'siri tashqi nerv tizimlari ishini yomonlashtiradi; bu esa terining sezish qobiliyatini susaytiradi, pay qavatlarining qotib qolishiga olib keladi, bo`g`imlarda tuz yig`iladi va bo`g`imlar xarakatini susaytiradi. Bu xolatlar ayniqsa sovuq fasllarda kuchayadi.

Titrash kasb kasalliklari toifasiga kiradigan kasallik bo`lib, uni davolash asosan boshlang`ich davrlaridagina natija beradi. Kasallikning orqaga qaytishi juda sekin boradi. Agar oldi olinmasa, kishi ishga yaroqsiz bo`lib qoladi. Bu kasallikning oldini olishning asosiy vositasi ish joylarida titrash normalarini belgilashdir. Titrash normalari gigienik va texnik normalarga bo`linadi.

GOST 12.1.014-78 "Mexnat xavfsizligi standartlar tizimi. Titrash, xavfsizlikning umumiy talablari"ga asosan titrashning inson organizmiga ta'siri nuqtai-nazaridan yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan miqdori va titrashning gigienik tavsifnomasini baxolash usullari belgilangan.

Titrash normalari umumiy va qisman titrashlar asosida ayrim-ayrim xolda baxolanadi. Umumiy titrash normalari aqliy mexnat bilan shug`ullanuvchilar, titrash bilan bog`liq tsexlar va titrashdan xoli bo`lgan zonalar uchun ushbu zonalarda ish bajaradigan mashina va mexanizmlar turlari asosida belgilangan.

Ish joylarining titrash normasi belgilanganda (pol, mashinalarning asosi va boshqaruvchilar uchun o`tirgichlar) titrash tezligining logarifmik darajasi o`rta geometrik chastotalari 2, 4, 8, 16, 32, 63, Gts gacha belgilanadi. Qisman

titrashda esa 16, 32, 63, 125, 250, 500, 1000 Gts gacha norma belgilanadi. Gigiena normalari 8 soatli ish vaqti uchun ishlab chiqiladi.

GOST 12.1. 012-78 talablaridan kelib chiqib, qisman titrashlar uchun ayrim standart belgilangan (GOST 17770-72 “Qo`lda ishlatiladigan mashinalar. Titrashning ruxsat etiladigan darajasi”).

6.3 Mashinada va agregatlarda titrashni kamaytirish usullari.

Titrashni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilashda mashinasozlik sanoatining asosi bo`lgan mashinasozlik tsexlarini butunlay mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni ko`zda tutish zarur. CHunki titrash ta'sirini butunlay yo`qotishning birdan-bir chorasi-butun texnologiyani avtomatlashtirish va titrash zonalariga odamlarning kirmasligini ta'minlashdir. CHunki tsexlar masofadan turib boshqarilsagina, titrash ishchiga ta'sir ko`rsatmasligi mumkin. Xozirgi vaqtda avtomatlashtirilmagan ishlab chiqarish uchastkalarida titrashni quyidagi kamaytirish usullaridan foydalaniladi:

- titrashni ajralib chiqayotgan manbaida kamaytirish;
- tarqalish yo`lida kamaytirish;
- maxsus ish sharoiti tashkil qilish yo`li bilan titrash ta'sirini kamaytirish;
- shaxsiy muxofaza aslaxalaridan foydalanish;
- sog`lomlashtirish chora-tadbirlarini belgilash.

Titrashga qarshi kurash usullari belgilash mashina-mexanizmlarning sanoat korxonalari sharoitida titrashni ifodalovchi tenglamalarini taxlil qilish asosida belgilanadi.

Ammo bu tenglamalar nixoyatda murakkab. CHunki xar qanday mashina va mexanizm texnologik qurol sifatida birmuncha murakkab qismlardan tashkil topgan bo`lishi bilan birga, unda bir qancha erkinlik darajalari tizimlari bo`lishi va ko`pgina rezonans xolatlari mavjud.

SHuning uchun titrash manbai sifatida bir tomoni prujina orqali ustuvorligi ta'minlangan massaning tashqi kuch ta'sirida sinusoidal tebranish

formulasini ko'rib chiqamiz. Bunda "massa faqatgina bitta erkinlik darajasiga va ishqalanishiga ega" deb faraz qilamiz.

$$mx' + \mu x'' + qx = F_m e^{\omega t}$$

Bunda: m -sistema og'irligi, kg; q -sistemaning elastiklik koeffitsienti, n/m; x -titrash oralig'i, m; x' -titrash tezligi, m/s; x'' -titrash tezlanishi, (d^2x/dt^2), m/s²; F_m -titrash xosil qiluvchi kuch, N; μ -ishqalanish koeffitsienti, n·s/m; ω -kuchning takrorlanish burchagi, rad/s.

Agar titrash oralig'ini $x=Ame^{\omega t}$ deb qabul qilsak, x' va x'' lar uchun ma'lum miqdorlar belgilasak, unda quyidagi tenglamani olamiz:

$$V = \frac{F_m}{\sqrt{\mu^2 + (m\omega - q/\omega)^2}}$$


Bu tenglamaning maxraji umuman tebranishga qarshilik sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunda μ -titrashga aktiv qarshilikni, $(m\omega - q/\omega)^2$ esa reaktiv qarshilikni bildiradi. O'z navbatida reaktiv qarshilikning $m\omega$ qismi inertsia qarshiligi, q/ω esa elastik qarshilik deb ataladi. Mexanik qarshiliklar o'lchov birligi-n·s/m.

Rezonans bo'lganda reaktiv qarshilik nolga teng bo'ladi. Bunda chastota $\omega = \omega_0 = \sqrt{q/m}$. Demak, tizimda titrashga qarshilik aktiv qarshilikdan iborat bo'lib qoladi. Natijada titrash amplitudasi bunday rejimda nixoyatda oshib ketadi.

Bu xolatdagi tezlanish amplitudasini quyidagi formula asosida topish mumkin.

$$V_{\text{raz}} = \frac{F_m}{\omega^0} \cdot \eta$$

Bunda η -rezonans vaqtida titrash tizimidagi tezlik amplitudasi mikdorini belgilovchi koeffitsient; $r = \omega\mu/q$,



4-rasm

Titrash amplitudasi siljishining chastotaga bog`liqligini ko`rsatuvchi grafik

Ko`rinib turibdiki, tizimdagi ishqalanish koefitsientining ortishi rezonans rejimda titrash amplitudasining kamayishiga, shuningdek titrash tezligining kamayishiga olib keladi, ya'ni $A_m = \omega V_m$.

Rezonans rejimidan kichik bo`lgan xolda, ya'ni  $m\omega \leq q/\omega$  bo`lsa, bunda inertsiya qarshiligi elastik qarshilikdan kichik bo`ladi, unda tizimning umumiy qarshiligi, uncha katta bo`lmagan ishqalanish koefitsientida asosan elastik qarshilikka teng bo`lib qoladi;  $z = q/\omega$ . Demak, bu chastotalarda sistema elastik qarshilik ta'sirida bo`ladi va titrash tezligi $V_m = \omega f_m/q$ ga teng.

Agar titrash xosil qilayotgan kuch rezonans xosil qiluvchi kuchdan ancha katta bo`lsa, unda  $m\omega \gg q/\omega$  bo`ladi. Ishqalanish koefitsienti kichik miqdorni tashkil qilgan xolda $\mu \leq m\omega$ tizim faqat inertsiya qarshiligi ta'sirida bo`ladi: $z = m\omega$. Bunda titrash tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_m = F_m/(m\omega); A_m = F_m/(m\omega) = x_{st}(\omega_0/\omega)^2$$

Bunda $x_{ct} - F_m$ kuch ta'sirida tizimning chëkishi.

Shunday qilib, z-sistemaning qarshiligi ω -chastotaning çsishi hisobiga ortib, titrash tezligining kamayishiga olib keladi. Bu usul mashinasozlik sanoatida keng qo'llaniladi.

Bitta erkinlik darajaga ega bo'lgan tizim titrash tenglamasini taxlil qilish xulosasi sifatida titrashga qarshi kurashning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

- titrash ajralib chiqayotgan manbaiga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kamaytirish;

- rezonans rejimini yo'qotish mexanizmning oqilona massasini tanlash yo'li bilan yoki titrovchi tizimning ustuvorligini oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi;

- vibrodeмпfirlash usuli titrash energiyasini boshqa turdagi energiyalarga aylantirish xisobiga amalga oshiriladi;

- titrashni dinamik so'ndirish-bunda tizimga titrovchi tayanch orqali ma'lum kuch qo'yish natijasida, titrashni fundamentga o'tmasligi ta'minlanadi;

- mashina elementlari va qurilish konstruksirlarini o'zgartirish yo'li bilan kamaytiriladi.

GOST 12.4.046-78 ga asosan titrashdan muxofazalash usullari asosan titrash ajralib chiqayotgan manbaga ta'sir ko'rsatish natijasida titrash parametrlarini kamaytirish usuli xamda titrashni tarqalish yo'lida kamaytirish usullariga bo'lib qaraladi. Bu keyingi usulga yuqorida keltirilgan 2, Z, 4-usullar kiradi; shuningdek unga titrashni izolyatsiya qilish va shaxsiy muxofaza aslaxalarini qo'llashni xam kiritish mumkin. Bu usullar titrash, uni keltirib chiqaruvchi xar qanday kuchlar asosida bo'lganda xam qo'llanilishi mumkin.

6.4 Titrashni ajralib chiqayotgan manbaiga ta'sir ko'rsatish bilan kamaytirish.

Texnologik jarayonlarni loyixalash vaqtida dinamik kuchlar ta'siri natijasida keskin urilish jarayonlari va keskin tezlanib-sekinlanishlari bo'lgan mashina-mexanizmlarni bartaraf qilish yoki keskin kamaytirishga xarakat qilish zarur.

Bu titrashlarni kamaytirishning asosidir. Masalan, ekstsentrik tizimli va qiyshiq, tishli mexanizmlarni tekis xarakatlanuvchi va aylanuvchi mexanizmlar bilan almashtirish yaxshi natija beradi. Bunda bolg'alash va shtampovka jarayonlarini presslash bilan almashtirish, urib to'g'rilash jarayonini bosim bilan to'g'rilashga o'tkazish, pnevmatik va mexanik qalpoqlashni gidravlik qalpoqlash va eritib yopishtirish bilan almashtirish yaxshi natija beradi.

Reduktorlarda titrashni kamaytirishda asosan to'g'ri tishli g'ildiraklarni qiyshiq tishlilar va shevron tishlilarga almashtirish, shuningdek tishli g'ildiraklarga ishlov berishda va ularning juftlarini tanlashga katta e'tibor berish kerak. Bunda titrashni keskin kamaytirishga erishish imkoniyatlari mavjud.

Titrashni kamaytiruvchi vosita sifatida dumalovchi podshipniklarni sirg'aluvchi podshipniklar bilan almashtirish xam yaxshi natija beradi. Nasos, ventilyator kabi mashinalardagi past chastotali titrashning xosil bo'lishiga ularning aylanuvchi qismlarining nomutanosibligi sabab bo'ladi. Bu mashinalar katta tezlikda aylanganliklari sababli uncha katta bo'lmagan nomutanosiblik xam katta titrash kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bu nomutanosiblik GOST 22061-76 bo'yicha muvofiqlashtirish yo'li bilan tugatiladi.

Rezonans rejimini yo'qotish, titrashni kamaytirishda undagi rezonans rejimini yo'qotish katta ahamiyatga ega. Bunda mexanizmning o'z tebranishi

chastotasini titrash xosil qiluvchi kuch chastotalaridan farqli bo'lishini ta'minlash muxim.

Mexanizm chastotasini aniqlashda xisoblash usuli va tajriba usullaridan foydalaniladi. Texnologik uskunalarda rezonans rejimini yo'qotishda asosan ikki usul qo'llaniladi.

Birinchi usulda tizim tavsifi o'zgartiriladi (og'irligi va ustuvorligi). Ikkinchi usulda esa mexanizmning ish rejimi o'zgartiriladi. Ustuvorligini o'zgartirish qovurg'alar o'rnatish bilan amalga oshiriladi. Ish rejimi esa mashina yoki mexanizmni loyixalash davrida o'zgartiriladi.

Vibrodempfirlash usuli tizimda xosil bo'lgan titrash energiyasini boshqa turdagi energiyaga aylantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

YUqorida keltirib o'tilgan titrash tenglamasini taxlil qilganda biz titrash tezligi tizimdagi ishqalanish koeffitsientiga bog'liqligini ko'rib o'tgan edik.

Titrah energiyasini kamaytirishda ishqalanish xosil bo'lishi mumkin bo'lgan joylarda konstruktiv material sifatida ichki ishqalanish qarshiligi katta bo'lgan materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Mashinasozlik sanoatida asosan foydalaniladigan cho'yan va po'lat konstruktsiyalarining ishqalanish koeffitsienti 0,001-0,01 ni tashkil qiladi. SHuning uchun sanoat mashinalarining titrash tezligi ancha yuqori va shuningdek titrash o'tkazuvchanligi xam katta.

Sanoatda qo'llaniladigan qotishmalar *Su-Ni*, *Ni-Ti*, *Ni-Co* larning ishqalanish koeffitsientlari taxminan 10 marta katta va 0,02-0,1 ni tashkil qiladi. Bu esa titrashni kamaytirish imkonini beradi, titrashni kamaytirishda marganets, mis va magniy qotishmalaridan tayyorlangan konstruktsiyalar yaxshi natajalar beradi. Bu detallarning titrashlari o'tkazuvchanligi cho'yan va po'lat detallariga nisbatan ancha kam. SHuningdek detallardagi issiqlikning ortishi xam titrashni kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Vibrodempfirlash vositasini xar xil qatlamli qotishmalar, masalan, po'lat-aluminiy, po'lat-mis yordamida xam kamaytirish imkoniyatlari mavjud.

Titlashni kamaytirish nuqtai nazaridan mashinasozlik sanoatida konstruktsiya detallari sifatida plastmassa, yog'och, rezina materiallaridan foydalanish yaxshi natija beradi. SHuning uchun ba'zi bir sekin yurar reduktorlarda metall tishli g'ildiraklar o'rniga tekstolitdan, kaprondan tayyorlangan tishli g'ildiraklardan foydalanilmoqda. Bularning natijasi o'zaroq fundamentga titlashning o'tishi etarlicha kamaytirilgan. SHuningdek plastmassa materiallaridan qirqish stanoklari uchun xar xil yordamchi qurilmalar va konduktorlar, konduktor vtulkalari, podshipnik va qisish qurilmalarida keng foydalanilmoqda.


Ba'zi bir xollarda bunday materiallardan foydalanish imkoniyati bo'lmay qoladi. Bunda titlashni kamaytirish maqsadida xar xil titlashga qarshi qoplamalardan foydalaniladi. Bunda asosan qoplamalarning deformatsiyalanishi natijasida ishqalanish energiyasi (shuningdek, titlash energiyasi) issiqlik energiyasiga o'tishi natijasida titlash so'ndiriladi.

Bunday qoplamalar rezonans titlashi bo'lgan xolatlarda yaxshi natija berishi kuzatilgan.

Moylovchi materiallar titlashni yaxshi so'ndiradi. Masalan, tishli g'ildiraklarning moy vannalarida ishlashi titlashlarni keskin kamaytirishga olib keladi. CHunki bunday xollarda metall detallar oralig'iga yopishgan moylovchi moddalar ulardagi titlashning tarqalishiga to'sqinlik qiladi.

Titlashni dinamik so'ndirish. Ko'pgina xollarda titlashni so'ndirish uchun agregatlar mustaxkam poydevorlar ustiga o'rnatiladi. Ayniqsa, katta xajmli poydevorlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu poydevorlarni xisoblash SN i P 19-79 asosida amalga oshiriladi.

Titlashlarni dinamik so'ndirishning eng yaxshi usuli sifatida mashinasozlikda qo'shimcha kuch qo'yish usulidan foydalaniladi. Bunda titlash xosil bo'layotgan M massaga va q ustuvorlikka ega bo'lgan va f chastotali agregatga, f_0 chastotaga, m massaga va q ustuvorlikka ega bo'lgan qo'shimcha titrovchi tizim qo'yiladi.



Titrashni dinamik so`ndirish (qo`shimcha kuch qo`yish usuli bilan)

Qo`shimcha kuch, ya'ni so`ndiruvchi tizim titrash xosil qilayotgan agregatga mustaxkam o`rnatilgan, shuning uchun bu qo`yilgan qo`shimcha kuch agregatda xosil bo`ladigan titrashga qarama-qarshi bo`lgan tartibda titrash xosil qilishi xisobiga agregat titrashini anchagina kamaytirishga olib keladi.

Bunday usulda titrashni kamaytirishning asosiy kamchiligi - uning ma'lum chastotalarda ishlatish mumkinligidir.

Ba'zi bir xollarda qo`shimcha kuchning chastotasi titrash xosil qilayotgan mexanizm chastotasiga mos kelib qolib, rezonans xosil qilishi mumkin. Bu esa titrashni so`ndirish o`rniga kuchaytirib yuborishi mumkin.

Suyuqlik va gazlar bosim ostida quvurlar orqali xarakatlantirilganda kompressor ta'sirida xosil bo`lgan titrashlar quvurlar orqali tarqalishi va bu asosan titrash ta'sirida quvurlar ulangan erlarining siljishiga va yoriqlar xosil bo`lishiga, shuningdek binolarga va u erda ishlayotganlar uchun ma'lum xavfli vaziyat vujudga keltirishi mumkin. Bunday xollarda pul'satsiya oqimini bir

tekis oqimga aylantirish yo`li bilan titrashlarni yo`qotishga erishiladi (27 - rasm).

Bu usuldagi titrashni so`ndirish kompressorning so`ruvchi va xaydovchi tomonlarida o`rnatilishi mumkin. Xuddi shunday qurilmalardan suyuqliklarni xarakatlantirishda xosil bo`ladigan titrashlarni so`ndirishda foydalaniladi.

5.5. Titrashdan saqlanish shaxsiy muxofazajixozlari. Titrashni o`lchash vositalari.

Qo`lda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan elektr va pnevmatik asboblardan foydalanilganda ishchilarning qo`llari orqali o`tadigan titrash ta'sirini kamaytirish maqsadida shaxsiy muxofaza aslaxalaridan foydalaniladi. Bunday vositalarga qo`lqoplar, titrashdan saqlovchi plastina va prokladkalar kiradi. Bunday vositalarni qo`lga o`rnatib ishlatiladi. SHaxsiy muxofaza aslaxalariga qo`yiladigan texnik talablar GOST 12.4.002-74 da aniqlangan.

Titrashlarning sovuq sharoitlarda ta'sir darajasining ortib ketishini xisobga olib, ishchilarni qish vaqtida issiq kiyim va issiq qo`lqoplar bilan ta'minlash tavsiya etiladi.

Titrash kasalliklarining oldini olish maqsadida ishlab-chiqarish sanoat korxonalarida titrash bilan bog`liq bo`lgan mashina va mexanizmlar bilan ishlovchi kishilar uchun maxsus ish rejimi tashkil qilingan. Masalan, qo`lda ishlatiladigan titrash tarqatuvchi mexanizm bilan ishlovchi ishchi sanitariya normalari talabiga muvofiq umumiy ish smenasining 2/3 qismidan oshmagan miqdorda ishlashi mumkin.

Boshqa sanitariya-gigienik omillar normada bo`lsa, titrash ta'sirida ishlayotgan ishchiga quyidagicha ish rejimi tashkil qilinadi. Bunda ovqatlanish uchun tanaffus 40 minutdan kam bo`lmasligi bilan birga yana ikki marta chegaralangan tanaffus qilinadi. Bu tanaffuslar ish boshlangandan keyin taxminan 1-2 soat davomida 20 minut va tushlik tanaffusdan 2 soat o`tgach 30 minut bo`lishi kerak. Tanaffuslardan ishchi aktiv dam olishi uchun foydalanish

kerak (masalan, maxsus gimnastika mashg'ulotlari va boshqa saqlanish chora-tadbirlari).

Titrash tarqatayotgan mashinalarda ishlayotgan ishchilar uchun ularning ish ritmiga titrash bo'lmagan texnologik vazifalarni bajarish ishlarini xam qo'shib olib borish tavsiya etiladi.

Agar biron-bir ishchida titrash kasalligi boshlanganligi sezilsa, uni vaqtincha VTEK qaror chiqarguncha titrash bo'lmagan engilroq ishga o'tkazish tavsiya qilinadi.

Umumiy titrash ta'sirida ishlayotganlar maxsus oyoq kiyimi kiyishlari kerak (GOST 12.4.024-76).

Titrashni ST 1991-78 "Titrashni o'lchash uchun qo'yiladigan umumiy talablar" shartlari asosida o'lchanadi. Bunda titrashni texnologik jixozlarda cheklash standartlari va sanitariya normalari berilgan.

Ko'plab ishlatiladigan o'lchash asboblari orasida ISHV-1 va VIP-2 ni, shuningdek, chet el asboblari ichida Daniyaning "Brilь va K'er" firmasida ishlab chiqarilgan o'lchash qurilmasi komplektini ko'rsatish mumkin.

7. YAKUNIY QISM

7.1.Umumiy xulosa va takliflar

Men ayollar beli kesimli ko'ylagini konstruktsiyasini qurish, modellashtirish va texnologik jarayonlarini tadqiqi mavzusidagi bajarilgan bitiruv malaka ishini loyihalashda quyidagi vazifalarni bajardim.

Ushbu bitiruv malaka ishi kirish, asosiy qism, tanlangan modelni loyihalash qismi, texnologik jarayonlarni loyihalash qismi, iqtisodiy qism, mehnat muhofazasi qismlaridan iborat. ayollar beli kesimli ko'ylagini konstruktsiyasini qurish, modellashtirish va texnologik jarayonlarini tadqiqi mavzusidagi bitiruv malaka ishi bo'yicha kiyimga qo'yiladigan talablar, material assortimentlari, mavsumiy kiyimga ishlatiladigan materiallar xususiyatlarini baholash uslublari, ayollar beli kesimli kiyimi eskiz modelini tanlash va uni asoslash, konstruktsiyasi modellashtirish kabi nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borildi. Bitiruv malaka ishini loyihasini bajarishdan maqsad Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chikarish korxonalari, zamon talabiga mos bo'lgan o'smir qizlar kiyimlarini modellarini ishlab chiqish, konstruktsiya va andoza chizmalarini ommaviy ishlab chiqarish korxonalariga joriy etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariva 2015- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalaishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 2."Yangi texnika va texnologiya" o'quv-uslubiy majmua
- 3.Abdullayeva "Tikuv buyumlarini loyihalash"
- 4."Yengil sanoat mahsulotlarini loyihalash asoslari "ma'ruzalar matni Namangan 2008-yil
5. "Tikuvchilik materialshunosligi" E. P. Maltva Toshkent 1986-yil.
- 6 .B.S.Sokulin, E.K.Amirova .Konstruktirovanie mujskoy ijenskoy odejdo" M. 2000 – god
- 7 .K.T Olimov , R. Olimov ,R.M . Rustamov, R. X. Nurboyev, L. P Uzoqova "Tikuvchilik mashinalari" Toshkent 2002 y.
8. S.M. Raximova "Bichish tikish asoslari" Toshkent 2008 yil
- 9 M. Rezametova "Tikuv buyumlari texnologiyasi" o'quv uslubiy majmua Namangan-2012
- 10.V.V.Isayev "Tikuvchilik korxonalari jixozlari" Toshkent 1986 yi
- 11.Komilova H.H, Hamrayeva H.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Moliya, 2003 – yil.
12. M.Sh.Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" T., O'zbekiston, 1994
13. X.X.Samarxodjaev . "Tikuv korxonalar uskunalari". T., O'qituvchi, 2001 yil.
14. X.X.Samarxodjaev "Spravochnik". T., O'qituvchi, 2001 yil .
15. A.Ya.Truxanova. "Tikuvchilik texnologiyasi asoslari" Toshkent.: 1998 yil.
16. M.Sh.Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" T., O'zbekiston, 1989 yil.
17. Hasanbayeva G.K, Shomansurova M.Sh. "Kompozitsiya asoslari". T.: 2009 yil.
18. Qulinjanova G.Q., Musaeva S.S. «Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi» Toshkent. 2002 yil

19. Truxanova A.T. «Engil kiyim texnologiyasidan rasmlı ko'rgazma»
20. Abdullaeva Q.M., Boboxanova X.Sh. va boshqalar. «Bichish tikishni o'rgatish metodikasi». T.: 2007
21. Martinova A.I va boshqalar. «Konstruktivaniya I modelirovaniya odejdy» Moskva. 1999 yil.
22. Matmusaev U.M, Kulmatov M.h, Ochilov T.A, Rahimov F. X, Jo'raev Z.B. Materialshunoslik. Kasb - hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “ILM ZIYO”, 2005. – 136 b.

Mavzuga oid internet saytlari

1. w.w.w.textil-press.ru
2. w.w.w.libos.uz
3. w.w.w.t-stile.info
4. w.w.w.moda.ru
5. w.w.w.google.ru
6. w.w.w.revolution.aibest.ru
7. w.w.w.list.ru
8. w.w.w.advancedclothing.org
9. w.w.w.season.ru
10. w.w.w.comtense.ru
11. w.w.w.w.ip.ru

Mundarija

Kirish	5
1.1. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati.....	9
1.2. Bitiruv malaka ishining maqsad va vazifalari.....	9
1.3. Tanlangan ob`ekt va tadqiqot usuli.....	10
II. Asosiy qism.....	
2.1. Tikuvchilik sanoati va hozirgi kundagi holati	11
2.2. Tikuvchilik mahsulotlarining rivojlanishi.....	12
2.3. Bitiruv malaka ishida tanlangan model uchun qo`yilgan talablar.....	13
2.4. Model ko`rinishi va tavsifi.....	15
2.5. Kiyim bichimi	20
2.6. Kiyim sifati haqida umumiy ma`lumot.....	24
2.7. Bitiruv malaka ishida tanlangan modelning vazifasi.....	25
2.8. Tanlangan model xususiyatidan kelib chiqib gazlama tanlash va asoslash..	26
III. Tanlangan modelni loyihalash qismi	
3.1. Tanlangan o`lcham belgilari kattaliklari	29
3.2. O`lcham olish shartlari	30
3.3. Kiyim konstruktsiyasini qurishda o`lcham va qo`shimchalar.....	31
3.4. Kiyim konstruktsiyasi va hisobi.....	31
3.5. Kiyim konstruktsiyasi hisobi M 1:4 (M 1:2).....	32
3.6. Loyihalanayotgan modelni modellashtirish va ishchi andozani tayorlash...	36
3.7. Loyihalanayotgan modelni qo`shimcha chok haqi kattaliklari.....	37
IV. Texnologik jarayonlarni loyihalash	
4.1. Kiyimga ishlov berishning texnologik ketma ketligini tuzish.....	40
4.2. Ishlab shiqarish oqimining shakl va turlarini tanlash hamda hisoblash.....	44
4.3. Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy-texnologik sxemasini (mexnat taqsimotini) tuzish.....	47
4.4. Ishlab chiqarish oqimini asosiy parametrlarini hisoblash.....	49
4.5. Ishlab chiqarish oqimining tashliliv texnologik sxemasi.....	51

4.6. Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy-texnologik sxemasini tuzish. (Analitik usuli va grafik usullari).....	56
V. Iqtisodiy qism	
5.1. Ayollar beli kesimli ko'ylagini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini zanjirli bog'lanish usulidan foydalanib tahlil etish.....	60
.VI. Mehnat muhofazasi qism	
6.1. Yengil sanoat korxonalarida mikroiklim sharoitlarini takomillashtirish...	66
7. YAKUNIY QISM	
7.1. Umumiy xulosa va takliflar.....	81
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	82
Ilovalar	
Mavzuga oid internet ma'lumotlari	